BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Ismailova Dilbar Ruzmatovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.15321055

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy jihatlari va pedagogik faoliyatdagi ahamiyati o‘rganiladi. Turli yondashuvlar asosida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish metodlari tahlil qilinib, ta’lim jarayonida bu kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari keltiriladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallashi va ularni kasbiy faoliyatida qo‘llash bosqichlari yoritiladi. Maqolada ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar, ta’lim jarayonidagi interfaol yondashuvlar hamda pedagogik faoliyatda kommunikativ va psixologik kompetensiyalarning o‘rni haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR

ijtimoiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, kasbiy rivojlanish, ta’lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, psixologik kompetensiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются технологии развития социальных компетенций будущих учителей. Изучается понятие социальной компетентности, ее структурные аспекты и значение в педагогической деятельности. Проанализированы методы развития социальной компетентности на основе различных подходов, а также представлены механизмы развития данной компетентности в образовательном процессе. Также освещаются этапы освоения будущими учителями социокультурных ценностей и их применения в профессиональной деятельности. В статье

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

социальная компетентность, педагогическая компетентность, профессиональное развитие, образовательные технологии, коммуникативная

рассматриваются факторы, влияющие на развитие социальной компетентности, интерактивные подходы в образовательном процессе, роль коммуникативных и психологических компетенций в педагогической деятельности.

компетентность, психологическая компетентность.

ABSTRACT

This article analyzes technologies for developing social competencies of future teachers. The concept of social competence, its structural aspects and significance in pedagogical activity are studied. Methods for forming social competence based on various approaches are analyzed, and mechanisms for developing this competence in the educational process are presented. The stages of future teachers' acquisition of socio-cultural values and their application in their professional activities are also covered. The article considers factors influencing the development of social competence, interactive approaches in the educational process, and the role of communicative and psychological competencies in pedagogical activity.

KEY WORDS

social competence, pedagogical competence, professional development, educational technologies, communicative competence, psychological competence.

KIRISH.

Yangi taraqqiyot davrida mamlakatimizda bo`lajak pedagogning muvaffaqiyati bevosita uning ijtimoiy muammolardan xabardorligi, muammoni ko‘rish va uni hal qilish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli shaxs muvaffaqiyatining asosiy jihati - istalgan maqsadlarga erishish va kerakli natijaga erishishga imkon beradigan ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi va taqdim etilganlik darajasidir. Kompetentlikning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari, shakllantirish omillari va shart-sharoitlari, kompetentlik turlari va ularning klassifikatsiyasi, kasbiy ijtimoiy xayotda kompetentlikni o‘rni va ahamiyatini o‘rganish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardir.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Mamlakatimizda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 4884-sonli qarori 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgiland [1]. O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning subyektiv o‘z-o‘zini anglashi

jarayonida uning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish vazifasi yetakchi vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday masalani hal qilish zaruriyati rasmiy organlar tomonidan ta’lim muassasalariga yuklatilgan missiya va jamiyatning taxminlari bilan belgilanadi, bu esa fuqarolarning ta’lim olish jarayonida ijtimoiy vakolatlarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini belgilaydi.

Shunday ekan, V.N.Kunitsina ijtimoiy kompetentlikning quyidagi turlarini belgilaydi: verbal kompetentlik; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-kasbiy kompetentlik; ijtimoiy-psixologik kompetentlik; o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish (ego-kompetentlik).

I.A.Zimnyaya inson va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan vakolatlarini ijtimoiy o‘zaro munosabatlar vakolatiga (jamiyat, jamoa, jamoa, oila, do‘stlar, sheriklar, mojarolar va ularni qaytarish, hamkorlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy harakatchanlik) vakolatiga kiritadi (og‘zaki, yozma, dialog, monolog; urf-odatlar, odob-axloq qoidalarini bilish va ularga rioya qilish; madaniyatlararo va xorijiy tillarda muloqotlar; ishbilarmonlik yozishmalari; aloqa vazifalari) [2].

Chet el mualliflari tomonidan ijtimoiy kompetensiyalarni o‘rganishga katta e’tibor qaratiladi. Shunday qilib, nemis psixologlari U.Pfingsten va R.Xintch ijtimoiy kompetentlikni ma’lum vaziyatlarda ijobiy va salbiy oqibatlarning uzoq muddatli ijobiy korrelyatsiyasiga olib keladigan bilim, hissiy va harakatlanish xatti-harakatlarini o‘zlashtirish deb izohlaydilar. X.Shreder va M.Forvergning fikricha, ijtimoiy kompetentlikka shaxsning to‘rtta xususiyati kiradi: muloqot qobiliyatlari, qat’iyatlilik, ta’sirchanlik va o‘zini o‘zi qadrlash.

Adabiyotlar tahlili kompetentlik tushunchasining turli talqinlari haqida quyidagi xulosalarni shakllantirdi [3-7]:

– Kompetentlikni shaxs sifati deb qaralishi (A.V.Adolf, R.X.Paparin);

– kompetenlik - insonning xulq-atvori va kvalifikatsiyasi (Y.B.Arsishevskaya, M.K.Kabardov);

– kompetentlik – ta’lim olganlik darajasi (G.N.Sirikov, A.D.Shenatunov);

– kompetentlik – bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlarni egallaganlik, yo‘nalganlik, nuqtai-nazar va boshqalar (T.K.Braje, A.K.Markova, N.V.Kuzmina, M.A.Choshanov)

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL.

Kompetentlik – kompetensiyaga egalik. Odatda kompetentlik tushunchasi biror-bir sohada chuqur bilimga egalik deb ta’riflanadi. Bu asosan mutaxassisni kasbiy sohada chuqur bilim va kvalifikatsiyaga ega bo‘lishidir. Bunda nafaqat bilim, balki tajriba ham nazarda tutiladi. Shunday qilib, kompetentlik bu – bilim, ko‘nikma va malakalar; insonning ma’lum bir talabga javob berishi, belgilangan ko‘rsatmalar

asosida harakatlanishi; biror bir sohada produktiv harakatlanish natijasida dolzarb masalalarni samarali yechimini topishdir.

Ijtimoiy kompetentlikni bo`lajak pedagogning ijtimoiy makonda takomillashuvi deb hisoblasak, xususan, ta'lim muassasasining tarbiyaviy muhiti insonning ijtimoiy xatti-harakatlarini modellashtirib, unga subyektiv o‘zini o‘zi anglash tajribasini olish, ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Tarbiya muhiti orqali ijtimoiy vakolatlarni shakllantirish jarayonida aynan shu pozitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonining natijasi, ya'ni maktab va atrof-muhitning haqiqiy o‘zaro ta'siri natijasi o‘laroq uning yangi darajadagi ijtimoiy vakolatlari yuzaga keladi. Shunda ijtimoiy kompetenlikni shakllantirish bugungi kunda zamonaviy maktab uchun muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanadi.

NATIJALAR.

Jamiyatda insonning ijtimoiy subyekt va shaxs sifatida faoliyat olib borishida ijtimoiy kompetentlik muxim o‘rin egallaydi.

Bu kasbiy kompetentlikning bir yo‘nalishi yoki kasbiy faoliyatning asosiy elementidir. Ijtimoiy kompetenlik – o‘zini-o‘zi anglash, bo`lajak pedagoglar xulq-atvori va xis-tuyg‘ularini tushunishi; bo`lajak pedagoglar bilan muloqot qilishda to‘g‘ri qaror qabul qilish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir.

Pedagogning ijtimoiy kompetentligi mohiyati quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

1. Pedagog shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi (A.Maslou); bolalarga mehr-muxabbat va muloqotga ehtiyoj (L.M.Mitina); har bir bolaga qadriyat sifatida qarash (K.Rodjers).
2. Pedagogning individual xususiyatlari, uning ruhiy xolati, atrofidagi insonlarni qabul qila olishi.
3. Kasbiy "Men-konsepsiyaga"egalik.
4. Refleksiv va perseptiv bilim, ko‘nikma, malakalar yig‘indisi. (O‘zining individual – psixologik xususiyatlarini anglaganligi, o‘zini xolati va xulq-atvorini baholay olish; bo`lajak pedagoglarni har tomonlama xis qilish va tushuna olish).
5. Psixologik-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalar: kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar; pedagogik muloqotga asos bo‘luvchi bo`lajak pedagoglarning psixik rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va ajratishga oid bilim va ko‘nikmalar.
6. Didaktik jarayon va didaktik muloqotni tashkil etish bilan bog‘liq pedagogik bilimlar.

O‘z tadqiqot ishimizda bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishni besh bosqichini shartli ravishda keltiramiz:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning anglanganligi.
2. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni egallanganlik.
3. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarnng o‘zlashtirish.
4. Egallangan va o‘zlashtirilgan qadriyatlarni o‘zining kasbiy faoliyatida qo‘llay olish.
5. Ijtimoiy-pedagogik ijodkorlik.

Anglanganlik va o‘zlashtirganlik bu boshlang‘ich bosqich, ya’ni kognitiv komponent, ijtimoiy-pedagogik amaliyot sohasida egallangan bilimlar.

O‘zlashtirganlik va qo‘llay olish ijtimoiy-pedagogik sohada individual shaxsiy tajriba, ijtimoiy-pedagogik borliqqa o‘z munosabatini ishlab chiqish ko‘nikmalarini anglatadi [4].

Ijtimoiy-ta’limiy jarayonni tashkil etishda quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Ta’lim jarayoni barcha subyektlarining faolligi tamoyili.

Bu barcha mashg‘ulotlarda intensiv ravishda interfaollik va hamkorlikka asoslanishni talab etadi.

2. Ta’limni dialog asosida tashkil etish tamoyili.

Mashg‘ulotlarni shaxslararo muloqotga asoslanishi, ta’lim subyektlarida o‘zaro ishonch, bir-biriga hurmat va boshqalar fikrini qabul qilish, hamda turli vaziyatlardan chiqib keta olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3. O‘quv jarayonidagi vaziyatlarni bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyati va shaxsiy tajribasi bilan uyg‘unligi tamoyili.

4. Pedagogik vaziyat tamoyili. Didaktik jarayonda emotsional muhitni tashkil etuvchi maxsus usul, metod va vositalardan foydalanish.

5. O‘zaro bir-birini to‘ldirish va bir-birini rivojlantirish tamoyili. O‘zaro bir-birini to‘ldirish va bir-birini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlikka, kreativlikka asoslangan metod, usul, shakl va texnologiyalardan foydalanish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning ijtimoiy ta’limiy jarayoniga ikki tomonlama qarash mumkin:

– talabalar tomonidan kasbiy ko‘nikma va malakalarni egallash; ularda zaruriy psixologik, ijtimoiy psixologik xususiyat va qobiliyatlarni shakllanishi;
– bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, ta’lim jarayoninig ijtimoiy shart-sharoitlarini o‘rganish. Ta’lim jarayonida ijtimoiy munosabatlar, rollar, normalar va motivlarni egallash.

O‘qitish jarayonidagi ijtimoiy tajriba turlicha bo‘lib, uning turli ko‘rinishlari va darajalarini ajratish mumkin. Ijtimoiy tajriba turlari ichida reproduktivlik va mavjud subyektlar o‘rtasidagi real ijtimoiy munosabatlarni ko‘rsatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar ijtimoiy kompetentlik mohiyatini anglashda turli xil yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi: ijtimoiy kompetentlik yoki bo`lajak pedagogning integral sifati, yoki ijtimoiy o‘zaro ta’sir sifatida taqdim etiladi; ijtimoiy kompetentlik qaysidir faoliyat natijasi yoki shaxsning ma’lum bir faoliyat turiga erishish ko‘rsatkichi sifatida tavsiflanadi; ijtimoiy vakolatni shakllantirishning mazmun komponenti insonning yoshiga bog‘liq. Turli yoshdagi ijtimoiy kompetentlikning shakllanish va rivojlanish jarayoni ham umumiy, ham o‘ziga xos xususiyatlarga, shu jumladan turli va o‘xshash tarkibiy qismlarga ega. Ta’lim oluvchilarning faol ijtimoiy rivojlanish shartlaridan biri ijtimoiy tajribaning turi va darajalarining o‘zaro integratsiyasi va ularning o‘zaro bog‘liklikda qo‘llanilishiga bog‘liq. Ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqarish talabalarnig ijtimoiy-pedagogik kompetentligining rivojlanganligi hamda ularda o‘z-o‘zini bilish xususiyatlarini shakllanganligiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon tezkorlik bilan rivojlanishni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ – 4884-sonli qarori.

2. Chuprov V.I., Zubok Y.A., Uilyams K. Xavfli jamiyatda yoshlar. – M.: Nauka, 2013. – P.

3. Veselkova N., Pryamikova E. O‘sishning ijtimoiy kompetensiyasi. – Ekaterinburg, 2015-yil.

4. Nagaichenko N.N. Ijtimoiy kompetensiya: kontseptsiyaning mazmuni va tuzilishi. – Yaroslavl Pedagogika byulleteni – 2012-yil, 3-son - II jild (Psixologiya va pedagogika fanlari)

5. Kolicheva Z.I. “Ta’limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan o‘qituvchining ijtimoiy kompetensiyasi”// Xalq ta’limi, 2013-yil 6-son.

6. Raven J. “Zamonaviy jamiyatda kompetensiya: aniqlash, ishlab chiqish va amalga oshirish. ingliz tilidan. – M.: Kogito-Sent, 2012-yil.

7. Mudrik A.V. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun "Ijtimoiy pedagogika" darsligi (V.A.Slastenin tomonidan tahrirlangan) Moskva: Akademiya, 2010-yil.

7. Feldstein D.I. "O‘sish psixologiyasi: tarkibiy va mazmunli xususiyatlar, shaxsni rivojlantirish jarayoni: tanlangan. – M.: MPSI, 2019-yil.